

SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI IQLIMI, GEOMORFOLOGIK VA GIDROGEOLOGIK SHAROITI

D.Yu.Maxkamova

B.S.Karimov

M.Yo. Abdurashidov

¹*Mirzo UlugʻBek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti*

²*Geologiya fanlari universiteti*

Surxon-Sherobod vohasi uch tomondan togʻlar bilan oʻralgan. Shimoldan Zarafshon togʻ tizmasi, gʻarbdan Koʻhitong togʻ, sharqdan Bobotogʻ bilan oʻralgan. Uning janub tomonidan Amudaryo oqib oʻtadi. Vohaning iqlimi keskin kontinental. Bu hol yillik mavsumiy va kunlik haroratning koʻrsatkichlarida yaqqol koʻrinadi. U shuningdek, havosining nihoyatda quruqligi mavsumiy namlanishining keskin farqlanishi bilan ajralib turadi. Yillik yogʻinlarning asosiy miqdori yoki 52 foizi noyabr-fevral oylariga 37% mart, aprel va may oylariga toʻgʻri keladi. Yozda va kuz oyining asosiy qismida yogʻingarchilik boʻlmaydi.


Havo namligi juda past va bugʻlanish juda katta boʻladi. Iqlim xususiyatlari boʻyicha Surxon-Sherobod vohasining sugʻoriladigan erlarini ikkita qishloq xoʻjalik mintaqasiga ajratish mumkin. Boʻz tuproqlar mintaqasi. Togʻ oldi va togʻ tekisliklaridan iborat boʻlib, unga Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy, Shoʻrchi, Boysun tumanlari va Qumqoʻrgʻon tumanining shimoliy qismi kiradi.

Iqlimi quruq, tipik subtropik iqlim. Lekin atrofidagi togʻlarga koʻtarilgan sari iqlim oʻzgaradi. Oʻlkaning tekislik qismlarida yoz serquyosh, issiq va quruq, toqqa tomon harorat pasayib boradi. Qish esa qisqa va iliq, lekin atrofidagi togʻlarda esa sovuqroq boʻladi. Yozda oʻlkaning tekislik qismi juda isib ketadi. Iyulning oʻrtacha harorati Denovda $+28,4^{\circ}\text{C}$, Sherobodda $+32,1^{\circ}\text{C}$ ga teng. Yozda baʼzan havoning eng yuqori harorati Termizda $+50^{\circ}\text{C}$ ga koʻtarilganligi qayd qilingan (1914 yil 21 iyulda). Bu respublikamizdagi eng yuqori haroratdir. Qish oʻlkaning tekislik qismida iliq boʻlib, yanvarning oʻrtacha harorati Sherobod va Termizda $+2^{\circ}\text{C}$ ga teng. Lekin atrofidagi togʻlarning 2500-3000 m balandliklarida yanvarning oʻrtacha harorati -6°C dir. Baʼzan qishda sovuq havo massalari togʻlardan oʻtib, tekislik qismi haroratini pasaytirib yuboradi. Shunday kezlarda havo harorati -20°C gacha pasayadi. Surxondaryo oʻlkasida yillik oʻrtacha harorat ancha yuqori boʻlib, Termizda $+17,4^{\circ}\text{C}$, Sherobodda $+18^{\circ}\text{C}$, Denov va Shoʻrchida $+16^{\circ}\text{C}$, togʻ yonbagʻirlarida okean sathidan 1200 m balandliklarda $+14,5^{\circ}\text{C}$ ga teng. Oʻlka respublikamizdagi eng issiq hudud boʻlganligidan ingichka tolali paxta va boshqa subtropik ekinlar etishtirish imkonini beradi.

Surxondaryo oʻlkasida yogʻinlar notekis taqsimlangan. Oʻlkaning janubidagi tekisliklarga eng kam yogʻin (yiliga 133-230 mm) tushadi. Lekin togʻ yonbagʻirlari boʻylab koʻtarilgach yogʻin miqdori ortib, 500-600 mm ga etadi. Nam havo shimol va shimoli-sharqqa borgan sari togʻlar tomon koʻtarilib soviydi va oʻlkaning shimol va

shimoli-sharqdan o‘rab olgan Hisor tog‘larining janubiy yonbag‘irlariga 800-900 mm gacha yog‘in tushishi mumkin. Surxondaryo tabiiy-geografik o‘lkasida yillik yog‘inning ko‘p qismi qishda (46-48 %) va bahorda (43-44 %) yog‘adi. Kuz oylariga yillik yog‘inning 8-10 % i, yozga esa atigi 1 % i to‘g‘ri keladi.

O‘lkaning tekislik qismida qor qoplami uzoq turmay erib ketadi. Ba‘zi yillari o‘lkaning tekislik qismiga qor butunlay yog‘maydi. Lekin tog‘larning 1900-2000 m baland qismlarida esa doimo erimay turadi. Doimiy qor chizig‘i Hisor tog‘ining janubiy yonbag‘rida o‘rtacha 3900-4100 metrdan boshlanadi. Shu sababli Hisor tog‘ining janubiy yonbag‘rida kichik muzliklar mavjud. Surxondaryo tabiiy-geografik o‘lkasida g‘arbiy, janubi-g‘arbiy va qishda shimoli-sharqiy shamollar ko‘p esadi. O‘lka janubiy qismining iqlimiga janubi-g‘arbdan esuvchi chang to‘zonli quruq “Afg‘on” shamoli salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu shamol ba‘zan 4-5 kungacha davom etishi mumkin. “Afg‘on” shamolining tezligi sekundiga 15 metrga etib, chang to‘zon ko‘tarilib, 200 m masofadagi narsalarni ko‘rib bo‘lmaydi. O‘sha chang, to‘zonlar ekinlarga ziyon keltiradi, g‘o‘za barglarini qovjiratib yuboradi. Bu shamol ko‘proq bahor faslida esadi.



**1-rasm. Sariyoshi tumanm iqlim ko‘rsatkichlari
(Metiostansiya ma‘lumoti, 2021y)**

Surxon-Sherobod vodiysi shimol, sharq va g‘arbdan sovuq havo massasining kirishidan mustahkam himoyalangan va janubdan issiq, quruq havoning bostirib kirishi uchun ochiq. Bu yoz va qish kunlarini haddan tashqari isib ketishiga olib keladi. Atmosfera yog‘inlarini o‘ziga xos tarqalishi ham yuqoridagi sabablar bilan tushuntiriladi. Shimoliy – sharqqa qarab ko‘pincha yog‘ingarchilik miqdorining tezda oshib ketishi va shimoli-g‘arb tomonga qarab bu miqdor juda kamayib boradi. Xududning ichida iqlimda juda katta farqlar kuzatiladi. Bu relfni katta farqliklari bilangina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki ona jinslar tavsifidagi keskin farqlar bilan ham bog‘liq.

Havo harorati. Surxon - Sherobod vodiysining tekislik qismida havoning o'rtacha yillik harorati 18° bo'lib, bu Markaziy Osiyo xududi uchun eng yuqori ko'rsatkichdir. Tog' oldilarida o'rtacha havo harorati yozda $+24^{\circ}$ - $+25^{\circ}$ oralig'ida, hatto dengiz satxidan 1200m balandlikdagi Sariosiyoda $+14,6^{\circ}$ ga teng. Yanvar oyida havoning o'rtacha harorati katta balandliklarda ham iliqlicha qoladi. Yanvar oyida o'rtacha havo harorati $+2,3 - 5,5^{\circ}$ ni tashkil etadi. Iyul oyining yillik o'rtacha xarorati $+25$ - $+26^{\circ}$ ni tashkil etadi. Sariosiyoda o'rtacha yillik xavo harorati $14,3$ - $13,8^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi.

Sariosiyo tumanining shimol, janub va markaziy qismi tekislikdan iborat. Sharqda Bobotog', g'arbda Boysuntog' tizmalari bilan o'ralgan. Yer yuzasi sharqqa tomon pasayib boradi.

Geomorfologiya jihatidan voha hududi tog'li va tekislik mintaqalariga ajratiladi. Tekislik mintaqasi ichiga xo'jalik jihatidan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha farqlanadigan 5 ta geomorfologik rayonga bo'linadi (Poslavskaya, 1961). Ular quyidagilardir:

1. Surxondaryo botiqligi rayoni;
2. Amudaryo bo'yi botiqligi rayoni;
3. Poshxurt xavzasi rayoni;
4. Kofirnixon bo'yi rayoni.
5. Qumli tepalik rayoni.

Viloyatda barcha sug'oriladigan maydonlarni sizot suvini chukurligi 5 m dan past joylashgan. Sariosiyo tumanining umumiy suv-tuz balansining kirim qismini tahliliga qarasa, tuman kesimida sug'orishga olingan suv 5128,1 ming m^3 bo'lgan. Kirim qismida balans konturiga olingan umumiy suv bilan 38,43 ming tonna ya'ni 0,3 g/l tdan tuz kelib, chiqim qismida 2.91 ming tonna tuz balans konturidan chiqib ketgan. Umumiy va xususiy suv-tuz balanslaridan ko'rinadiki, xo'jaliklararo va xo'jalik ichki kanallaridan bo'ladigan yo'qotishlar (tashlamalar, filtratsiya) hisoblanadi. Yalpi maydondan chiqib ketgan suv miqdori kirimga nisbatan 4,5% dan ko'p, yalpi maydonga gektariga 2,61 tonna tuz kelgan. Shunga qaramasdan VME ma'lumotlari bo'yicha 96% erlar sho'rlanmagan darajada.

Xulosa kilib aytsa bo'ladiki tumanni mineralizatsiya holati yaxshi, yani 4,54% ni tashkil qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Atoev B., Kaypnazorov J., Egamberdieva M., Makhammadiev S., Karimov M., Makhkamova D. Technology of nutriating winter wheat varieties in variety-soil-fertilizer system. E3S Web of Conferences 244, 02040 (2021).

2. Gafurova L.A., Madrimov R.M., Razakov A.M., Nabiyeva G.M., Makhkamova D.Yu., Matkarimov T. R. Evolution, Transformation And Biological Activity Of Degraded Soils. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 28, No. 14, (2019), pp. 88-99

3. Makhkamova D., Azimqulova F. The Effect of Winter Lentil (*Lens Culinarius* L) on the Microbiological Activity of Irrigated Light Sierazem Soils. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. ISSN NO: 2771-8840 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 07-10-2022. P. 9-11.

4. Makhkamova D., Gafurova L., Nabieva G., Makhammadiev S., Kasimov U., Juliev M. Integral indicators of the ecological and biological state of soils in Jizzakh steppe, Uzbekistan. Sustainable Management of Earth Resources and Biodiversity IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1068 (2022) 012019 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1068/1/012019

5. Махкамова Д.Ю. Актиномицеты в гипсоносных почвах Джизакской степи // XXIV Международная научная конференция студентов, аспирантов и молодых ученых. Ломоносов -2017. Тезисы докладов. Москва, МАКС Пресс, 2017 г. -С. 33-34.

6. Nabieva G.M., Makhkamova D.Yu., Igamberdieva D.A. Taxtako'pir tumani o'tloqi-allyuvial tuproqlarning biollogik faolligi. NamDU ilmiy axborotnomasi JURNALI. № 10. 2020.- B.184-188.

7. Махкамова Д.Ю., Рузиматова С.Э., Каримов Б.С. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 www.oriens. February 2022. -P.488-494

8. Муродова С.С., Гафурова Л.А., Файзуллаев Б.А., Махкамова Д.Ю., Тиллаев Э.Т., Сайдалиев Б. Новый полифункциональный биопрепарат для повышения биологической активности засоленных почв. Ж.Вестник НУУз 2013. Том 4. № 2. С. 201-207.